

Korrupsiyaga qarshi choralar va qonun hujjaligiga rioya etish

2025 12 Mart

Uzbekistan Airways bosh ofisida Transport prokururasi va aviakompaniyaning rahbariyati bilan birgalikda tadbir tashkil etildi. Tadbir mavzusi “Korrupsiyaga qarshi choralar va qonun hujjaligiga rioya etish” bo’ldi.

O’zbekiston Respublikasi Transport prokurori Ikrom Narimov va “Uzbekistan Airways” AJ Boshqaruv raisi Shuxrat Xudaykulov mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish bo’yicha hukumat doirasida ishlar olib borilayotgani, unga qarshi keskin qonuniy choralar ko’rilayotgani, buning uchun bir necha qonun hujjalari imzolanganini ham alohida ta’kidladilar.



Yangilanayotgan O'zbekistondagi bunday tarixiy ishlar, ayniqsa, mamlakat va xalq farovonligini oshirish, hududlarimiz qiyofasini o'zgartirish, yurtimizda tinchlik va osoyishtalikni, adolatni ta'minlashda ham aviatsiya xodimlarini ham katta hissalari bor. Shu bilan birga, bugungi islohotlar shunday shiddat va ko'lam kasb etmoqdaki, qaysi soha va tarmoqda bo'lmasin, hatto yillar davomida to'plangan bilim, tajriba va ko'nikmalar bunday o'zgarishlar talabiga javob bermay qolmoqda. So'nggi yillarda davlat organlari bilan aholi o'rtasida ochiq muloqotni yo'lga qo'yish, dolzARB muammolarni aniqlash, davlat organlari va boshqa tashkilotlar tomonidan murojaatlarning ko'rib chiqilishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha alohida davlat dasturlari amalga

oshirilmoqda.



Bu borada davlat idoralari rahbarlari zimmasida katta mas'uliyat bor, zero, har bir rahbardan eng avvalo, o'zining fidokorligi, mas'uliyati, vatanga va el-yurtga sadoqati bilan qo'l ostidagi xodimlarga o'rnak bo'lishi, shu bilan birga, butun tizimda qonun talablariga itoatkorlik muhitini shakllantirishi talab qilinadi.

Uchrashuvda jamiyatda qonun ustuvorligi vaadolat ta'minlanmasa, qonunlar ijrosiz qolsa, har qanday tashabbus va islohotlar samarasiz bo'ladi, bora-bora tartib-intizom izdan chiqib, parokandalikka olib kelishi ta'kidlandi.



Davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi kurashish va ochiqlik borasidagi ishlarining samaradorligini reyting baholash, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni majburiy aniqlash va baholash tizimlari joriy etildi. Barcha davlat idoralarida komplaens va samaradorlikni baholash reytingi tizimlari yo'lga qo'yilib, davlat xardidlari to'liq raqamlashtirildi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoevning tashabbuslari asosida korrupsiyaga qarshi samarali kurashni tashkil etish, bu illatga batamom chek qo'yish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.



Xususan, dastlabki bosqichda asosiy e'tibor qonunchilik bazasini xalqaro talablarga mos tarzda takomillashtirish, davlat boshqaruvini demokratlashtirish va shaffofigini ta'minlash masalalariga qaratilib, 100 dan ortiq normativ-hujjat, shu jumladan "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi hamda mazkur sohadagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari belgilandi. Shu bilan birga, korrupsiyaga qarshi kurashish borasida "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonun qabul qilinib, bu boradagi ustuvor vazifalar belgilab olindi.

"Qonun - ustuvor, jinoyatga jazo muqarrar", degan tamoyil kim bo'lishidan qat'iy nazar, har qanday qonunbuzarga nisbatan ertami-kechmi, albatta tatbiq etilishi

shubhasizdir.

Korrupsiya – butun insoniyatga, barcha jamiyatlar asosiga, iqtisodiy taraqqiyotga zarba beradigan, qonun ustuvorligini buzadigan va xalqning davlat siyosatiga ishonchini keskin susaytiradigan, demokratik institutlar rivojiga to'sqinlik qiladigan xatarli tahdid bo'lib, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va qonun ustuvorligini mustahkamlash yo'lidagi eng katta to'siqlardan biridir.

Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, davlat idoralarida korrupsiyaning oldini olish, samarali natijalarga erishish ichki idoraviy nazorat – komplaens nazorat tizimi faoliyatiga bevosita bog'liq. Shu bilan birga, mazkur tizim korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida xalqaro standartlar hamda idoraviy chora-tadbirlarni amalda samarali tatbiq qilishga, shuningdek xodimlar tomonidan kasbiy odob-axloq qoidalariiga qat'iy rioya etilishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Agar, xorij tajribasiga ahamiyat bersak, Fransiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Singapur kabi qator rivojlangan davlatlarda komplaens nazorat tizimi korrupsiyaning oldini olishda hal qiluvchi rol o'ynagan.

Davlatimiz rahbarining qat'iy talablari asosida bu borada shunday ish uslublari, nazorat mexanizmlari joriy etilmoqdaki, ular orqali har qanday "uddaburon" korruptionerni ham javobgarlikka tortish imkon yaratilgan.

Transport porokuraturasi bilan o'tkazilgan tadbirda "Uzbekistan Airways" Aksiyadorlik jamiyatida korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha olib borilayotgan ishlar ham aytib o'tildi. Tadbir so'nggida mas'ul rahbarlarga ko'rsatmalar berildi:

- xodimlar tomonidan jinoyat va huquqbazarlik sodir etilishini oldini olish, ularga imkon beruvchi shart-sharoitlarni bartaraf etish masalalarini muntazam muhokama qilib, manzilli chora-tadbirlar belgilash;
- xodimlar o'rtasida huquqiy targ'ibot-tashviqot tadbirlarini yanada kuchaytirish;
- korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi faoliyatini jadallashtirish va mazkur tuzilma nazorat tadbirlarini o'z vaqtida o'tkazib borish talab etiladi.

Prokuratura organlari tomonidan vazirlik va idoralarda qonun ustuvorligini ta'minlash, korrupsiya holatlarini oldini olish, xodimlarning jinoyatchiligiga imkon beruvchi shart-sharoitlarni bartaraf etishga qaratilgan zarur choralar ko'rib borilmoqda. Albatta, bunda mazkur idoralar bilan o'zaro yaqindan hamkorlik qilish,

axborot almashinuvini yo'lga qo'yish katta samara beradi.